

Texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish ishlari sifatini yaxshilash

**Sh. Sayfiddinov, (magistranti)
Raxbar., J.F. Valiyev**


Xozirgi davr avtomobil sanoati rivojlanishi barobarida ishlab chiqarilgan avtomobillarni texnik qarovdan o'tkazish va sifatli xizmat ko'rsatish davr talabiga aylanib qoldi. Har qanday avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalarida bajariladigan ish unumi xorijda va o'zimizda ishlab chiqariladigan yengil avtomobillarni texnik xolatini yaxshi saqlash, ekspluatatsiya davrini uzaytirishni taqozo qiladi. ATXKS larda har qanday mijozni talabini to'liq qondirilishi ularni avtomobillariga sifatli texnik servis ishlarini bajarish orqali raqobatbardosh texnik servis stansiyalariga aylanishi mumkun. Biz bu mavzu orqali hozirgi kunda avtomobillarni sifatli texnik servis ishlariga ta'sir etuvchi ommillarni avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalari misolida tadqiqot ishlarini olib bordik. Mavzuning dolzarbligi shaxar va qishloq joylarida faoliyat yuritayotgan texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalari va kichik servis markazlarini tadqiqot qilish natijasida, yengil avtomobillarga sifatli texnik servis ishlariga ta'sir ko'rsatuvchi ommilar aniqlandi. Bularga birinchi navbatda avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalarida muxandis mutaxasxislarni yetishmasligi, zamonaviy kompyuter diagnostikalash jixozlarini kamligi, ekspluatatsiya davrida buzilgan ba'zi bir detallarni sifati yaxshimasligi hozirgi kunda texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalarida sifatli texnik xizmat ko'rsatishga ta'sir ko'rsatmoqda. Biz tadqiqot ishlarini yengil avtomobilda uchraydigan nosozliklar (Matiz, Nexiya) misolida, ko'proq qaysi ehtiyot qismlarga bo'lgan talab ko'pligi, ishlab chiqarilgan ehtiyot qismlari ishonchliligini mutaxassislar yordamida aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2017 yil II-IV oylardagi avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyasida avtomobil ehtiyot qismlarida uchrayotgan nosozliklarni aniqlash.

№	Nazoratostidagidetallarnomi	Soni	Tadqiqot olib borilgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasi
1	Oldingi g'ildirak gupchadi	34	3-ATXKS, Roxat ATXKS
2	Sovitish radiatori	8	3-ATXKS, Roxat ATXKS
3	Amartizator	23	3-ATXKS, Roxat ATXKS
4	Tormoz tiziml nakladkasi	86	3-ATXKS, Roxat ATXKS
5	Uzatmalar qutisi shesterniyalar juftligi	17	3-ATXKS, Roxat ATXKS
6	O't oldirish shamlari	124	3-ATXKS, Roxat ATXKS
7	Tashqi podshipnik	79	3-ATXKS, Roxat ATXKS
8	Orqa g'ildirak tormozi ishchi silindri	42	3-ATXKS, Roxat ATXKS
9	Moy filtri	278	3-ATXKS, Roxat ATXKS
10	Xavo filtri	27	3-ATXKS, Roxat ATXKS
	Jami:	715	

Tadqiqot natijasida avtomobillarda uchrayotgan buzulishlar ko'p uchraydigan ehtiyot qismlarda uchraydigan detallarga bo'lgan talabni aniqlab olib ular orqali foizlash diagrammasi ishlab chiqiladi.

Nosozliklar taqsimoti diagrammasi



Xozirgi davrga kelib yengil avtomobillarni ko'pida quyidagi ehtiyot qismlarga bo'lgan talab ortganligi aniqlandi bular avtomobil o't oldirish shamlari, moy filtri, tashqi podshipnik va tormoz tizimi nakladkasi shu turdagi bazibir ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyoj oshib borganligini ko'rishimiz mumkun bo'ladi.

Xozirgi kunda biz tadqiqot ishini davom ettirib, O'zbekistonni tabiiy iqlim sharoiti, ba'zi bir yo'llarni xolati talab darajasiga javob bermasligi, foydalaniladigan yoqilg'ini tarkibidagi ba'zi bir ximik unsurlarni ko'pligi (oltingugurt) avtomobil detallari resursini kamayishiga va ehtiyot qismlar ishonchligini pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Biz tadqiqot ishlarini olib borish orqali bizni xududga mos keladigan avtomobil ehtiyot qismlarini ishonchligi yuqori bo'lgan detal, agregatlarini mutaxassislar fikri orqali so'rovnoma o'tkazish yo'li bilan va sinov natijasi orqali aniqlab olinib, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalari uchun uslubiy qo'llanma ishlab chiqiladi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu maqolamiz orqali biz shaxsiy avtomobil egalariga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida ularni ortiqcha sarf xarajatlarni kamaytirish uchun foyda beradi deb hisoblaymiz, agar biz to'g'ri yechim qilib bera olsak shaxsiy avtomobil egalariga sifatli texnik xizmat ko'rsatish ishlarini ta'minlagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi . Prof. Sidiqnazarov Q.M. umumiy taxriri ostida, Toshkent "Voriz-Nashriyot", 2006.-560 b.
2. Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari: Oliy o'quv yurtlari bakalavrlari uchun darslik. A.A. Tojiboyev, Q.M. Sidiqnazarov, K.I. Ibrohimov, N.V. Kusnetsov, T.: "Extremum-Press" 2015. 296 b.
3. www.academia-moscow.ru/off-line/_books/fragment_11618.pdf